

SAN'ATGA UMRINI BAXSHIDA ETGAN INSON.

Umidjon Nurullaev,

Musiqa madaniyat fakulteti,

Vokal va cholg'u ijrochiligi II kurs talabasi

Muxamedziyanov Kamil Taxirovich,

ilmiy rahbar, JDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rustam Ibragimov hayoti va ijodi hamda pedagogik mehnat faoliyati davomida 500dan ortiq shogirdlarni yetishtirib chiqarganligi haqida yoritilgan bo'lib, hozirgi kundagi shogirdlarning ijodiy faoliyati rivojlanishi uchun ustoz hali ham o'z bilim ko'nikmalarini o'rgatmoqda.

Kalit so'zлari: San'at, simfonik orkestr, madaniyat, ansambl, filarmoniya

Har bir millatning, har bir hududning o'ziga xos etnik xususiyati, tarkibi, madaniyati va turli udum-an'analarini bo'ladi. Ayniqsa, madaniyat va san'at rivojlangan makonda insonlar qalbi mehrga tashna va go'zal bo'ladi. Jizzax viloyati hududi ham mana shunday ajoyib o'ziga xos o'zgacha madaniy hayotga erishilganligini biz ko'p bora kitoblarda ham o'qiganmiz, oynai jahon orqali ham tomosha qilganmiz. Mana shunday darajaga yetishda tinimsiz mehnat qilgan ijodkor ustazoda insonlarni umri uzoq bo'lsin.

- I. Rustam Ibragimov hayoti va ijodi
- II. Jizzax viloyatidagi ilk kichik simfonik orkestr jamoasi
- III. Qo'shni davlatlarga ijodiy safarlar
- IV. Shogirdlar davrasi

San'at, madaniyat, adabiyot va bir qator mana shu kabi yo'nalishlar rivojlanib kelayotgan paytda ushbu davr bilan hamnafaslikda juda ko'p ijodkor ustoz san'atkorlar yetishib chiqdi. Hayotiy yillari, ijodiy va mehnat faoliyati davomida juda ko'p shogirdlarni yetkazib chiqargan ustoz Rustam aka Ibragimov viloyatdagi madaniy hayot va san'atning rivojlanishi uchun juda ko'p zahmatlar chekdi.

Rustam Asadovich Ibragimov – 1941- yilda Samarqand viloyatida tavallud topgan. Mohir pedagog, dirijor, sozanda. 1963-yilda O'zbekiston davlat

konservatoriysi “Xalq cholg‘ulari orkestri dirijori va chang sozi o‘qituvchisi” mutaxassisligini tamomlagan. Ustozning ilk mehnat faoliyati Toshkent Davlat Filarmoniyasida ijrochi sifatida boshlangan. 1966-yilda Jizzax musiqali drama teatridda ish faoliyatini davom ettirgan. Bugungi kunda Jizzax ixtisoslashtirilgan san’at maktabi katta o‘qituvchisi. Hamda Jizzax davlat pedagogika instituti Musiqa madaniyati fakulteti Kasb ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi hisoblanadi. San’at sohasiga deyarli umrini yarimidan ko‘pini baxshida etgan inson Rustam aka Ibragimov bir qator asarlar sahnalashtirish ishlarida, ularni kuy va qo‘shiqlarini orkestr hamda ansambl ijrolari uchun moslashtirishda o‘zining sezilarli hissasini qo‘shgan.

Qolaversa, Jizzax viloyatida ilk faoliyatini boshlagan davrlarda kichik simfonik orkestr jamoasini tashkil etgan Jizzaxlik ilk mohir dirijor hisoblanadi. Ushbu orkestr yangilangan tarkib bilan ham bugungi kunda o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Orkestr repertuaridan esa juda ham rang-barang va o‘ta shiddatli hamda mohirona asarlar o‘rin olgan.

Viloyat tuzilgan ushbu kichik orkestr bir qancha joylarda ijodiy konsert safarlari o‘tkazib kelgan. Jumladan, Tojikiston, Qirg‘ziston, Turkmaniston kabi respublikalarda ijodiy safarlarda bo‘lishgan. Ushbu safarlarda mohirona asarlar: “Guli siyoh”, “Aldangan qiz”, ”Ajab savdolar”, “Toshbolta oshiq” kabi spektakllar orkestriga dirijorlik qilgan. Ijodkor rahbarligida sahnalashtirilgan “Maysaraning ishi va Xolisxon” spektakli Respublika Televideniyasida bir necha bor efirga uzatilgan.

Ustoz ijod olamidan so‘ng 1979-yildan Pedagogik sohaga ham o‘z hissasini qo‘shgan, bir necha shogirdlarining Jizzax va Respublika miqyosida bo‘lgan tanlovlarda ishtirokini ta’minlab faxrli natijalarga erishishida sababchi bo‘lgan. Jumladan, Suyun Rahmatov 1995-yilda o‘tkazilgan “Yosh ijrochilar” ko‘rik-tanlovi laurenti, 2016-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Xalqaro konkursda iqtidorli o‘quvchisi Muhlisa Egamqulova sertifikat sohibi bo‘lgan. Umuman olganda Rustam aka Ibragimovning pedagogik mehnat faoliyati davomida 500 dan ortiq shogirdlarni yetishtirib chiqargan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, inson hayotida davomida bitta sohani mukammal egallab uni davom ettirishi uchun, o'sha sohada samarali faoliyat olib borish uchun butun umri ham kam hisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz. Mana shunday bo'lajak madaniyat hodimlari ham ustozlar izidan yurib to'g'ri hulosa chiqarishsa, egallagan o'rnida mahkam o'rnashib olsa demak ana shunda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan deb beixtiyor aytalarni olamiz. Inson ongida, qalbining to'rida ezgulik urug'larini sochish har bir insonning burchi ayniqsa san'atkorlarning va madaniyatchilarning bu boradagi o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustam Ibragimov tarjimai holi
2. Jizzax viloyati tarixi kitobi